

Kodirov Komiljon Raximovich
Farg‘ona davlat universiteti
Fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Tel: 9040755942 e-mail: kkodirov65@mail.ru
Ro‘zikov Maxammadjon Mamirali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Tel: 911200575 e-mail: ruzikov91uz@mail.ru

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNING TURLARI

Annotatsiya: Maqolada matematikadan sinfdan tashqari ishlarni shakllantirish, turlari va ularni o‘tkazish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, fakultativ, dastur, to‘g‘arak, moyillik, material.

Кодиров Комилжон Рахимович
Ферганский государственный университет
Кандидат физико-математических наук, профессор
Тел: 9040755942, e-mail: kkodirov65@mail.ru

Розиков Махаммаджон Мамиралли оглы
Преподаватель Ферганского государственного университета
Тел: 911200575, e-mail: ruzikov91uz@mail.ru

ВНЕУРОЧНЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО МАТЕМАТИКЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ И ИХ ВИДЫ

Аннотация: В статье представлены сведения о формировании внеурочной работы по математике, ее видах и проведении.

Ключевые слова: математика, факультатив, программа, кружок, склонность, материал.

Kodirov Komiljon Rakhimovich
Fergana State University
Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Phone: 9040755942, e-mail: kkodirov65@mail.ru

Rozikov Maxammadjon Mamirali o'g'ly
Teacher at Fergana State University
Phone: 911200575, e-mail: ruzikov91uz@mail.ru

EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN MATHEMATICS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS AND THEIR TYPES

Abstract: The article provides information on the formation of extracurricular activities in mathematics, their types, and how they are conducted.

Keywords: mathematics, elective, program, club, inclination, material.

KIRISH

Matematikani o'rta maktabda o'qitish dasturi zamonaviy fan rivojiga yaqinlashtirish maqsadida o'zgarishlarga ko'p uchramoqda. Maktab matematikasi kursiga avvalgi fakultativ kurslarga kiritilgan masalalar, mavzular va boblar kiritilmoqda. Shunday bo'lsa ham, ularni o'qitishga ajratilgan soatlar hajmi kamayib bormoqda. Shuning ta'siridan har bir darsda yangi materiallar nazariy tomondan o'rganilib, o'quv materialini puxta mustahkamlashga, masalalar yechishga, mashq, takrorlash ishlarini yuritishga vaqtning yetishmasligi aniq kuzatilmoqda.

Matematikani maktabda o'qitish dasturidagi va shu dasturga asoslanib yozilgan darsliklar mazmunidagi o'zgarishlar o'quvchilarning dasturiy materiallarni o'zlashtirish darajasidagi har xillikga olib kelmoqda. Unga o'quvchilarning yakka xususiyatlari ham sabab bo'ladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarning matematikani o'zlashtirish darajalari ajrala boshlaydi. Ularning ba'zilari matematikani qiziqib o'qishadi, yuqori natijalarga erishadi, ba'zilari katta hajmdagi ish bajarish natijasidagina o'rtacha o'zlashtiradi, qolganlarida esa, tushunmagan masalalari asta sekin ko'payib boradi va o'zlashtirish past bo'ladi.

O'quvchilarning shu xususiyatlari matematikani o'qitish natijasiga ham o'zgarishlar kiritishga olib keladi. Ya'ni, sinfda o'tkaziladigan darslar bilan birga matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlarni aniqlash, ularning samarasini orttirish usullarini topishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ish deb, o'qituvchining o'quvchilar bilan sinfdagi darsdan boshqa vaqtda yuritadigan tizimiga aytadi.

Matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlar – umumiy bilim beradigan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarining juda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, respublikamiz olimlaridan Sh.Mardonov, A.Xalikov, A.Sadikova, F.Ibragimova, N.Artikova, J.Abdusamatov, R.Shermatov, O.Norbadalov, E.Noquvvatov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda aloxida fan nuqtai jihatdan yondashishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlar, sinfdan o'tkaziladigan darslar bilan birga matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlarni aniqlash, ularning samarasini orttirish usullarini topish, matematika fanini past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun sinfdan tashqari qo'shimcha darslarni tashkillashtirish tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlar uning maqsadiga ko'ra asosan ikki turga bo'linadi.

1. Dastur bo'yicha materiallarni qiynalib o'zlashtiradigan yoki o'zlashtira olmaydigan, o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan yuritiladigan ishlar. Bu guruhga har turli sabablar bilan (uzoq vaqt kasallanib darsga qatnashmagan, bir maktabdan ikkinchi maktabga almashish vaqtidagi uzilish va x.k) darsga qatnasha olmagan, shu davrda o'tilgan materiallarni o'zlashtira olmay qolgan o'quvchilarni ham kiritish mumkin bo'ladi.
2. Matematikani qiziqib o'qiydigan, ijodiy ish bajarishga moyil o'quvchilar bilan yuritiladigan ish. Matematikadan sinfdan tashqari yuritiladigan ishlar o'quvchilarning dastur bo'yicha bilimini mukammallashtirish, fanga, ilmga qiziqishini uyg'otish, ijodiyotga o'rgatish bilan birga ularning bo'sh vaqtini maqsadli foydalanishning bir yo'li hisoblanadi[1-2].

Sinfdan tashqari yuritiladigan ishlarning darsdan bir qator farqlari bo'ladi:

1. O'qitish darslari barcha o'quvchilar uchun majburiy bo'lsa, sinfdan tashqari ish erkin turda tashkillashtiriladi. Qaysi to'garakga qatnashishini o'quvchilar o'zining qobiliyati va moyilligiga ko'ra o'zlari tanlay oladi. Sinfdan tashqari bajariladigan ishlarni o'qituvchi yakka yoki bir nechta o'quvchi bilan bajara oladi.
 2. Sinfdan tashqari yuritiladigan ishlar majburiy dastur bo'yicha yurgizilmaganlikdan bu ishlarning turlarini, ish mazmunini o'quvchilar o'zlarining bilim darajalariga, qiziqishlari, moyilliklariga va imkoniyatlariga ko'ra tanlay oladi.
 3. Qo'shimcha darslar va boshqalarda sinfdan tashqari ishlarga har sinfning o'quvchilari, har xil yoshdagi bolalar qatnashganlikdan ularning bir birlarini yaqindan tanishiga, kuchli jamaoning shakllanishiga imkoniyat paydo bo'ladi. Ularning orasidagi do'stona munosabat kuchayib, kattaning kichikga g'amxo'rlik qilishi, kichikning kattaga xurmatda bo'lishi kabi malakalari shakllanadi.
 4. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarish orqali, ularning malakalari rivojlanadi va fikr doiralari kengayadi.
 5. Matematik bilimlarni o'zlashtirib, ko'nikmalarni orttirishda, sinfdan tashqari ishlarning turlarini ko'p xilligi, o'quvchilarni zeriktirmasdan, diqqat bilan ish bajarishga chorlaydi.
 6. Matematikadan sinfdan tashqari ishlarga qatnashishi o'quvchilarning kelgusidagi kasblarini tanlashga ham ta'sir qilishi mumkin[3-4].
- Endi o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan yuritiladigan sinfdan tashqari ishlarga to'xtalamiz.

Matematikani past o'zlashtiradigan o'quvchilar avval ham bo'lgan, hozirgi umumta'lim maktablarida ham ko'plab uchrab turadi. Bu esa matematika fani o'qituvchilarini o'ylantiradigan katta masalaga aynalmoqda, ya'ni o'qituvchining ular bilan qo'shimcha darslar o'tkazishiga to'g'ri keladi, qo'shimcha dars o'tkazishdan asosiy maqsad, o'quvchining dasturiy bilimidagi bo'shliqlarni aniqlab, ularni o'z vaqtida bartaraf etish hisoblanadi.

XULOSALAR

Matematika fanini past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun sinfdan tashqari qo'shimcha darslarni tashkillashtirish jarayonida ushbu qoidalarining bajarilishi yaxshi natija beradi:

1. Matematikadan sinfdan tashqari qo'shimcha darslarni tashkillashtirganda unga qatnashadigan o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarning bir xil mazmunli bo'lishini, o'quvchilarning ularni o'zlashtirish qobiliyatlarining bir darajada bo'lishini e'tiborga olish kerak. Darsga qatnashadigan o'quvchilarning soni 3-4, ko'pi bilan 5-6 tadan oshmagani maqul.
2. Darsga qatnashuvchi o'quvchilar bilan iloji boricha yakka tartibda shug'ullanish lozim. Buning uchun ularning har biriga oldindan tayyorlangan yakka tartibdagi topshiriqlar beriladi va ularni bajarishi jarayonida yordam ko'rsatiladi.
3. O'zlashtirishi past o'quvchilar bilan qo'shimcha darsni haftasiga bir yoki ikki marta o'tkazish va uni darslardagi materiallar bo'yicha uy vazifalari bilan bog'lab qarash.
4. Navbatdagi o'tkazilgan darslarda undan oldingi bo'shliqlarni qanchalik o'zlashtirganini aniqlash uchun nazarot qilish.
5. Matematikadan o'tkaziladigan qo'shimcha darslar o'qituvchi tomonidan tashkillanishi maqsadga muvofiq. Bunday darslarda didaktik materiallardan olingan mustaqil va nazarot ish topshiriqlarini darslik materiallaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.
6. Matematika fani o'qituvchisi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning bilim darajasini har kuni nazorat qilib, o'zgarishlarni hisobga olishni puxta rejalashtirish lozim. Ularning tipik xatolarini aniqlab, uni tuzatish usulini puxta reja asosida olib borgandagina, matematikadan sinfdan tashqari o'tkazilgan qo'shimcha darslarning samaradorligi ortadi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirov K.R., Mamatqodirov M.M. Matematika darslarida tarixiy kompetentdan foydalanish NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020. №12. 375-378 b.

2. Kodirov K.R., Nishonboyev A.S. On the scientific basis of forming students' logical competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol. 11, Issue 3, March 2021.
3. Kodirov K.R., Mamatqodirov M.M. Formation of distance elective classes in mathematics for secondary school students. *Miasto Przyszłości*. Vol. 30 (2022): Poland. 131-132
4. Turgunbayev R.M., Qodirov K.R., Nishonboyev A.S. Matematika o'qitishda faoliyatli yondashuv va uning ahamiyati. *NamDU ilmiy axborotnomasi*. 2022. №9. 518 –523 b.